Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319421

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

TO'QIMACHILIK KLASTERI VA SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI O'RGANISH

Andijon mashinasozlik instituti, "Axborot tizimlari va texnologiyalari" yo'nalishi 3-kurs talabasi Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o'g'li

Biz bu yozgan tezisda to'qimachilik klasteri va sanoat korxonalarini boshqarish tizimi haqida organamiz. Eng birinchi boshqaruv va boshqaruv tizimi haqida organamiz. Bundan tashqari tashkiliy tuzilma haqida o'rganamiz.Boshqaruv tuzilmasi dinamik tarzda bo'lishini organamiz.
Tayanch iboralar: Tashkiliy tuzilma, chiziqli, funksional, chiziqlishtabli, matritsali boshqaruv tuzilmasi, muammoli-maqsadli tashkiliy tuzilma.

Boshqaruv - ijtimoiy mehnat jarayoniga ishlab chiqarish rivojlanishiningob'yektiv qonunlari asosida yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish tizimi, har bir ishchining va butun jamoaning mehnatini bir vaqtning o'zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usulidir. Moddiy boyliklar va ne'matlar hamda ularga tenglashtirilgan qadriyatlrni taqsimlash, iste'mol qilish va ayirboshlash ham boshqaruvni talab qiladi.

Boshqaruv tizimi - deganda nimani tushunish lozim? Agar jamiyatning butun iqtisodiy tizimini oladigan bo'lsak, uning tarkibiga kiruvchi ko'plab kichik tizimlarni - tarmoqlar, korxonalar, birlashmalar va hokazolarni ko'rishimiz mumkin. Ularning har birini ikki jihatidan: mustaqil faoliyat yuritish nuqtai nazaridan yoki butun birlikning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, korxona (firma) mustaqil boshqaruv tizimi yoki tarmoqning (ishlab chiqarishning) bo'linmasi, bo'g'ini sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunga bog'liq bo'lgan holda boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, uning vazifalari shakllantiriladi.

Tashkiliy tuzilma - deganda korxona boshqaruvi vazifalarini bajaruvchi turli xil bo'lim , xizmat va bo'linmalar tarkibi, o'zaro munosabatlari va bir-biriga bo'ysinishini tushunish lozim. Tashkiliy tuzilma boshqaruvning tizim va alohida faoliyat turi sifatidagi bir butunligini ifodalaydi. U boshqaruv idoralarining ma'lum bir tartibi, hokimiyat va bo'ysinish aloqalari,vertikal va gorizontal mehnat taqsimotining integratsiyalashuvini tashkil etadi.

Boshqaruv tuzilmasi dinamik tarzda bo'ladi. U ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining rivojlanishi, boshqaruv ob'yektlarining qarama-qarshiliklari va qonuniyatlari haqidagi bilimlarimiz darajasining o'sishiga bog'liq holda o'zgarib boradi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasiga korxonaning hajmi, uning ixtisoslashuvi va kooperatsiya aloqalari, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, joylashgan hududi kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi.Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasi bilan aloqada va ko'p jihatdan unga bog'liq bo'ladi. Korxona qanchalik katta, ishlab chiqarish va unda foydalanuvchi mehnat qurollari va texnologiyalar qanchalik murakkab bo'lsa, boshqaruvning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasi, shuningdek, korxona boshqaruv apparatining vazifalari shunchalik murakkablashadi.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o'g'li (2023). To'qimachilik klasteri va sanoat korxonalarini boshqarish tizimini o'rganish. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319421

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Турсунхужаев П.М. Корхоналарда ишлаб чикаришни ташкил килиш ва режалаштириш. Тошкент, 1997 й.
2. Маслов Е.В. Управление персоналом предприятия. М.: -1998 г.
3. Производственный менеджмент. Ильенкова С.Д. тахрири остида, М. 2001 й.
4. Пахтани дастлабки кайта ишлов бериш. Зикриеёв Э. умумий тах,рири остида, Укув кулланма. Т.; М ехнат -2002.
5. Ш епеленко Г.И. Экономика, организация и планирование производства на предприятии. Ростов-на-Дону. 2001 г.
6. Косимов F.M. Ташкилот ва ташкилий бошкариш назарияси. -Т., 2004Й.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

YONG‘IN XAVFSIZLIGI XIZMATINI AXBOROT TIZIMINI YARATISHNING AFZALLIKLARI VA ULARNI MODELLASHTIRISH

Andijon mashinasozlik instituti, katta o‘qituvchisi Ikromov Xusan Xolmaxamatovich,
Andijon mashinasozlik instituti, 4-bosqich talabasi Jabborov Islombek Isomiddin o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqola yong‘in xavfsizligi xizmatini axborot tizimini yaratishning afzalliklari va ularni modellashtirish haqida. Axborot tizimi yaratish, tizimni xavfsiz va samarali qilish uchun zarur bo‘lgan bir qator tadbirlarni o‘z ichiga oladi va tizimni qulay va ishlovchi qilishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar. Xavfsizlik, maxfiylik, shifrlash, konfiguratsiya, tarmoq, protokol, model, ma’lumot.

Yong‘in xavfsizligi xizmatini axborot tizimini yaratishning afzalliklari va foydalanish kerakliligi quyidagilar.

Maxfiylik. Axborot tizimini yaratish, ma’lumotlarni xavfsiz saqlash va ulanish imkoniyatini ta’minlaydi. Maxfiylik, foydalanuvchilarning shaxsi ma’lumotlari, ma’lumotlarbazalari, tarmoq ulanishlari va boshqa maxfiy ma’lumotlarni ta’minlaydi.

Ma’lumotlar xavfsizligi. Axborot tizimi yaratish, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydi. Bu ma’lumotlarni shifrlash, ma’lumotlarni ko‘rsatmasdan saqlash va yo‘q qilish, vayronlik va to‘g‘ri xavfsizlik sozlamalarini qo‘llash, istisnolar bilan shug‘ullanish va boshqa xavfsizlik xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Tarmoq xavfsizligi. Axborot tizimini yaratish, tarmoq xavfsizligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi. U tarmoqni viruslar, hakerlar va boshqa hujumlar qarshi himoyalaydi.

Monitoring va dorilash. Axborot tizimi yaratish, tarmoqni va tizimni monitoring qilish, tizimda voqealar va xatolar aniqlash, ularga tez va to‘g‘ri javob bermoq va tizimni yaxshi ishlatishga imkoniyat yaratadi.

Masofaviy xodisalar. Axborot tizimi yaratish, foydalanuvchilar ma’lumotlarni masofaviy ravishda qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini beradi. U, masofaviy xodisalar, masofaviy ishlar va ishlab chiqarishni o‘rganish uchun qulayliklar ta’minlaydi.

Tarmoq boshqarish. Axborot tizimi yaratish, tarmoqni boshqarish va tizim sozlamalarini o‘zgartirish uchun vositalarni o‘z ichiga oladi. Bu, yangi qurilmalar qo‘shish, sozlamalarni o‘zgartirish va boshqa tizim boshqarish amallarini o‘zi o‘tkazadi.

Xavfsizlik yangilashlari. Axborot tizimi yaratish, yangi xavfsizlik yangilashlarini taqdim etish, yani viruslar va hujumlar sonini kamaytirish uchun yangi xavfsizlik narxlari va vositalarini qo‘llash imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarishni o‘rganish. Axborot tizimi yaratish, tizimning qanday ishlab chiqarilayotgani, tizimni tezroq va to‘g‘ri qilish uchun muhim ma’lumotlar va statistikalar taqdim etish imkoniyatini beradi.

Qulay va to‘g‘ri ishlovchi interfeyslar. Axborot tizimi yaratish, o‘qituvchilarga va ishlab chiqarish xodisalariga oson foydalanish imkoniyatini taqdim etish, bu esa